UO‘K 94(510.3):327(410)

BRITANIYA IMPERIYASI VA YETTISHAHAR DAVLATINING O‘ZARO ALOQALARI

S.A. Sobirov

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan murakkab geosiyosiy sharoitda Britaniya imperiyasi va Yettishahar davlati o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tahlil qilingan. Britaniya tashqi siyosatining maqsad va manfaatlari, Yettishahar davlatining mintaqadagi o‘rni hamda ushbu munosabatlarning “Katta o‘yin” doirasidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tomonlar o‘rtasidagi aloqalarning siyosiy, diplomatik va strategik omillari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Britaniya imperiyasi, Yettishahar davlati, Sharqiy Turkiston, Yoqubbek Badavlat, “Katta o‘yin”, Tomas Forsayt, Markaziy Osiyo, Pomir, savdo munosabatlari, missiya.*

В статье анализируются взаимоотношения Британской империи и государства Йеттишар, сложившиеся во второй половине XIX века в условиях обострённой геополитической ситуации в Центральной Азии. Рассматриваются цели и интересы британской внешней политики, место Йеттишара в региональной системе и значение данных контактов в контексте «Большой игры». На основе политических, дипломатических и стратегических факторов выявляются особенности взаимодействия сторон.

Ключевые слова: *Британская империя, государство Йеттишара, Восточный Туркестан, Якуб-бек Бадаулет, «Большая игра», Центральная Азия, дипломатические отношения, геополитика.*

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida yirik imperiyalar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat keskinlashgan davr sifatida tavsiflanadi. Bu davrda Rossiya imperiyasining Turkiston hududlariga faol ekspansiyasi, Britaniya imperiyasining Hindiston shimoliy chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan siyosati hamda Sin imperiyasining Sharqiy Turkistondagi hukmronligini tiklashga bo‘lgan urinishlari mintaqada murakkab siyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Mazkur jarayonlar tarixshunoslikda “Katta o‘yin” doirasida talqin etilib, bunda Sharqiy Turkiston strategik hudud sifatida alohida ahamiyat kasb etgani ta’kidlanadi.

1860-yillarning boshlariga kelib Sin imperiyasining ichki siyosiy inqirozi va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi Sharqiy Turkistonda keng ko‘lamli musulmon qo‘zg‘olonlarining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Aynan shu sharoitda 1864-yilda Qoshg‘ar va unga tutash hududlarda yangi siyosiy tuzilma – Yettishahar davlati shakllandi. Bu davlatning paydo bo‘lishi mahalliy aholi manfaatlari bilan bir qatorda xalqaro kuchlar muvozanatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Yettishahar davlatining siyosiy yetakchisi Muhammad Yoqubbek qisqa vaqt ichida harbiy va ma’muriy islohotlar orqali hududiy yaxlitlikni ta’minlashga erishdi. U davlat boshqaruvida islomiy-huquqiy asosga tayangan, markazlashgan tizimni shakllantirib, tashqi siyosatda yirik imperiyalar bilan manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yishga intildi.

Mazkur davrda Britaniya imperiyasining Sharqiy Turkistonga bo‘lgan qiziqishi avvalo Hindiston xavfsizligiga bog‘liq strategik omillar bilan izohlanadi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda mustahkamlanib borishi London uchun jiddiy xavf sifatida ko‘rilgan. Shu sababli Britaniya diplomatik doiralari Yettishahar davlatiga Rossiya ekspansiyasiga qarshi muhim bufer davlat (o‘zaro qarama-qarshi davlatlar o‘rtasida joylashgan alohida davlat) deb qaradi. Bu holat Britaniya-Yettishahar aloqalarining shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan birga, Britaniya imperiyasi Yettishahar davlatiga nisbatan ehtiyotkor siyosat olib bordi. Rasmiy ravishda mustaqil davlat sifatida tan olinmagan bo‘lsa-da, diplomatik missiyalar va savdo sohasida Yoqubbek hukumati bilan aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Britaniya uchun Yettishahar bilan munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy ittifoqqa emas, balki razvedka, savdo va diplomatik axborot almashuviga qaratilgan edi.

Yettishahar davlatining tashqi siyosati ham aynan shu geosiyosiy vaziyat ta’sirida shakllandi. Yoqubbek Britaniya imperiyasi bilan yaqinlashuv orqali xalqaro maydonda siyosiy legitimlikka erishish, qurol-aslaha va texnik yordam olish, Sin imperiyasi bosqiniga qarshi tayanch yaratishni ko‘zlagan. Bu jihat Yettishahar davlatining tashqi siyosati mahalliy manfaatlar bilan bir qatorda global siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi.

Material va tahlil usullari

Maqolada qo‘yilgan muammo Hodong Kimning “Xitoydagi muqaddas urush: Markaziy Osiyodagi musulmon qo‘zg‘oloni va davlati, 1864–1877” (“Holy war in China: the Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877”) [1], D.Ch.Boulgerning “Yoqubbek hayoti: Qoshg‘ar amiri Otaliq G‘oziy Badavlat” (“The life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar”) [6], A.N.Kuropatkinning “Qoshg‘ariston: mamlakatning tarixi va geografiyasi tavsifi, uning harbiy kuchlari, sanoati va savdosi” (“Кашгария: историко-географический очерк страны, ее военные силы, промышленность и торговля”) [9], D.A.Isiyevning “Yettishar uyg‘ur davlati (1864–1877)” (“Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877)”) [3] kitoblari asosida o‘rganilgan.

Muammoni tadqiq etishda qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tarixiy-xronologik, analiz va sintez tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Britaniya imperiyasi va Yettishahar davlati o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ittifoq yoki ochiq siyosiy hamkorlik shaklida emas, balki ehtiyotkorlikka asoslangan hamda vaziyatga moslashuvchan siyosat doirasida shakllandi. Ushbu aloqalar XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan murakkab geosiyosiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq edi. Yettishahar davlatining vujudga kelishi Britaniya imperiyasi tomonidan strategik ahamiyatga ega hodisa sifatida baholanib, u Rossiya imperiyasining Turkiston orqali janubga tomon kengayishini cheklovchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Britaniya siyosiy doiralari Yettishahar davlatiga to‘laqonli ittifoqchi sifatida emas, balki Rossiya va Sin imperiyalari o‘rtasida kuchlar muvozanatini saqlab turishga xizmat qiluvchi bufer siyosiy tuzilma sifatida qaradi.

Britaniyaning Qoshg‘ar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishi ko‘p jihatdan R.B.Shou, G.V.Xeyuord va U.H.Jonson kabi alohida shaxslarning sa’y-harakatlariga bog‘liq edi [1. B. 144]. Piter Hopkrikning yozishicha, dastlab vatandoshlari orasida Sharqiy Turkiston hududiga birinchilardan bo‘lib borishni oldiga maqsad qilgan kishi Robert Shou edi. Robert Shou Hindistonda Himolay tog‘i etaklarida choy plantatsiyalariga egalik qilardi. U Sharqiy Turkistonda ochilmagan bozor borligini bilgan holda, uni ingliz mahsulotlari bilan to‘ldirishni orzu qilardi va buni amalga oshirish mumkinligiga ishonchi komil edi. U 1868-yilning 20-sentabr kuni mahalliy chopar yuborib, Yoqubbekning chegara xodimlariga hosili va do‘stona niyati haqida xabar berdi, shundan so‘ng choy va boshqa mahsulotlar ortilgan karvon bilan Lehdan yo‘lga chiqdi. Uning ortidan yana bir tadqiqotchi – Jorj Xeyuord ham kelayotgan edi. Keyinchalik ular Yorkend shahrida poytaxtga borishga ruxsat kelishini kutishdi, Yoqubbekning qabuli kuni aniq bo‘lgach, Qoshg‘ar tomon yo‘l oldi. R.Shou g‘arbda Pomir tog‘lari, sharqda Taklamakon cho‘llari ko‘rinib turadigan Qoshg‘ar shahriga yetib keldi. Yoqubbek Badavlat tomonidan iliq kutib olingan dastlabki uchrashuvdan so‘ng u uch kun keyin yana ko‘rishishi kerak edi, lekin bu uchrashuv uch oyga cho‘zilib ketdi. Bu bejiz emas edi, Yoqubbek Rossiya bilan munosabatlarni mustahkamlab olmoqchi edi [2. B. 450–457].

Yoqubbek Rossiya va Yettishahar o‘rtasidagi savdo aloqalari ikki tomonlama muloqotning birinchi qadami bo‘lishiga umid qildi. U Qoshg‘arga kelgan birinchi rus savdogarlariga alohida e’tibor bilan qaradi: ularga shahardagi eng yaxshi karvonsaroy ajratildi, ularning tovarlariga atayin qiziqish uyg‘otildi va Yoqubbek shaxsan ulardan ko‘p narsalar sotib olib, haqini oltin bilan to‘ladi. Biroq Rossiya Yoqubbekning diplomatik maqsadlariga javob bermadi. U faqat savdo aloqalari bilan cheklanishni ma’qul ko‘rdi. Yoqubbek uchun esa Yettishaharning xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega edi. Shu sababli u Rossiya va Angliya o‘rtasidagi ziddiyatlardan foydalangan holda, ularning birini Qoshg‘ar bilan ittifoqqa jalb qilishga harakat qildi [3. B. 37].

1869-yil 5-aprel kuni Yoqubbek Robert Shouni o‘z huzuriga chaqirdi. R.Shou bu yaxshi xabarligini chuqur his qildi, chunki Yoqubbekning Rossiya bilan munosabatlarini zimdan kuzatib borardi. Yoqubbek ingliz savdogarini avvalgidan ham yaxshiroq kutib oldi. Uchrashuv so‘ngida Yoqubbek Britaniya

imperiyasi bilan faol aloqalar olib borishini va unga o‘zining elchisini qo‘shib jo‘natishini ma’lum qildi. Bu paytda R.Shouning yoqtirmagan bir sherigi – Jorj Xeyuord va pandit maktabidan bo‘lgan sirli Mirzo Shuja ismli kishi hukumat tomonidan ushlab turilgandi. Ular Yettishahar davlati elchisi sog‘-salomat qaytib kelgunga qadar garovda ushlab turilishi kerak edi. Lekin R.Shou Yoqubbekning inglizlar bilan munosabatlarni yaxshilash taraddudida ekanligidan foydalanib, garchi ularni yoqtirmagan bo‘lsa-da, yordam berishga harakat qildi. U darhol o‘zi yaxshi munosabatda bo‘lgan Yoqubbekning yuqori lavozimli amaldorlaridan biriga maktub yubordi. U maktubida “bir ingliz kishisi o‘z xohishiga qarshi bu yerda ushlab turilarkan”, Yoqubbekning Britaniya bilan do‘st bo‘lish ilinjida Hindistonga elchi yuborishi vaqtni zoye ketkazish bo‘lishini aytib ogohlantirdi. Natijada nafaqat Xeyuord, sirli hisoblangan Mirzo Shuja ham ozod qilindi va bemalol yo‘lga chiqishi ma’lum qilindi [2. B. 464–466]. Ular Hindistonga juda katta ma’lumot bilan qaytdilar, jumladan, Mirzo Shujaning sa’y-harakati bilan olib kelingan ma’lumotlar asosida birinchi marta Afg‘onistonning shimoli va Pomir tog‘larini o‘z ichiga olgan xarita yaratildi.

1868–1869-yillarda Qoshg‘arga tashrif buyurgan R.B.Shouning asarlari Britaniyaning Sharqiy Turkistonga nisbatan keyingi siyosatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U bu yerda bozorning nihoyatda katta salohiyatga ega ekanini hamda strategik jihatdan muhim va savdo nuqtayi nazaridan sermahsul hududni Rossiyaga boy berib qo‘yish xavfini alohida ta’kidladi. Yoqubbek hukmronligi ostidagi Sharqiy Turkistonning boyligi va xavfsizligi haqidagi Shouning ijobiy xulosasi 1869-yil boshida Hindistonning yangi vitse-qiroli etib tayinlangan R.S.B.Meyoda kuchli taassurot qoldirdi. U yangi siyosat ishlab chiqib, Afg‘oniston va Sharqiy Turkistonni Britaniyaga do‘stona bo‘lgan mustaqil davlatlar sifatida ko‘rishni maqsad qilgan edi [4. B. 39–40].

Shou va Xeyuord tashrifidan ilhomlangan Yoqubbek Sayyid Ahrorni Meyo huzuriga elchi qilib yuborib, uning Qoshg‘arga qaytishida bir ingliz zobitini hamroh qilib berishni so‘radi. Meyoning bundan xursandligi cheksiz bo‘ldi va u zudlik bilan birinchi rasmiy ingliz elchilarini – T.D.Forsayt, G.Henderson va A.O.Humni jo‘natdi; keyinchalik ularga R.B.Shou ham qo‘shildi. Ammo ular Yorkendga yetib kelganlarida Yoqubbek u yerdan chiqib ketgani, sharqiy chegarada dunganlarga qarshi qizg‘in jang olib borayotganligidan xabar topadilar. Meyo tomonidan qat’iy ko‘rsatma berilgani bois, ingliz elchilari qish mavsumida Qoshg‘arda qolmasliklari shart edi. Shu sababli ular Yorkendda uzoq turib qololmadilar, natijada ularning missiyasi muvaffaqiyatsiz yakunlandi [1. B. 144].

Tarixchi D.Isiyev Forsayt missiyasi muvaffaqiyatsiz yakunlanishining bir nechta sabablarini ko‘rsatadi: Hindiston vitse-qiroli missiyani juda kech yuborganligi; yo‘lni bosib o‘tishdagi qiyinchiliklar Forsaytni kechiktirdi; Forsaytning Qoshg‘arda qisqa muddat bo‘lishi Yoqubbekning Urumchi xonligiga qarshi yurishda bo‘lgan paytiga to‘g‘ri kelishi. Eng muhim sabab shundaki, Forsayt tashrifi davrida Yoqubbek Rossiya bilan muzokaralarga kirishgan edi. Yoqubbek ingliz hukumati bilan kelishuv tuzishdan oldin Rossiya bilan olib borilayotgan muzokaralar natijasini kutishni afzal ko‘rdi [3. B. 39].

Yoqubbek jang maydonidan Qoshg‘arga qaytgach, 1871-yil oxirida yana Sayyid Ahrorni Hindistonga yubordi. U Hindiston general-gubernatori hamda Angliya qirolichasiga murojaatnomalar topshirishi kerak edi. Sayyid Ahrorning safaridan ko‘zlangan maqsad Britaniya hukumatiga Yoqubbekning Urumchidagi dunganlarga qarshi so‘nggi yurishidagi g‘alabasi haqida xabar berish va Hindiston bozoridan miltiqlar xarid qilish edi. 1872-yilgi Rossiya-Qoshg‘ar savdo shartnomasi orqali Rossiyaning Qoshg‘ar ustidan kuchayib borayotgan ta’siri hamda Angliyada R.B.Shouning “Qoshg‘ar kelajakda katta bozor sifatida ochilishi mumkin, u Britaniya savdogarlari uchun go‘yo bir turdagi Eldorado (ya’ni boylik va imkoniyatlarga to‘la joy – *S.S.*) bo‘lib ko‘rinardi” tarzidagi tashviqotlari Angliya bilan Qoshg‘ar munosabatlarini tezlashtirish uchun yangi turtki bo‘ldi [5. B. 68]. 1873-yil boshlarida “Hindiston idorasi savdo palatalari va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan murojaatlar va vakolatxonalar bilan to‘libtoshdi, ularning barchasi Otaliq G‘oziy bilan Britaniya savdo shartnomasini tuzish foydasiga Shouning dalillarini keltirardi” [4. B. 48–49]. Meyoning o‘rniga general-gubernator etib tayinlangan T.J.B.Nortbruk ham Qoshg‘ar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatish maqsadga muvofiq, deb hisoblagan edi.

1872-yil oktabr oyida Yoqubbek Usmonli sultoni huzuriga Sayyid Yoqubxon boshchiligida maxsus elchilik missiyasini yubordi. Elchi Istanbulga yo‘l olarkan, 1873-yil fevral oyida Kalkuttaga kelib, 1872-yil 5-oktabr (hijriy 1289-yil sha’bon oyining 1-kuni) sanasi bilan Hindiston vitse-qiroli nomiga yo‘llangan Yoqubbekning rasmiy maktubini topshirdi. 1873-yil 8-martdagi uchrashuvda elchi missiyaning bosh maqsadini ochiq bayon qildi: “Britaniya hukumati bilan do‘stona ittifoqni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash; bu ittifoqni shunchalik oshkora ko‘rsatish kerakki, u ikki hukumat o‘rtasidagi yaqin aloqani butun dunyoga namoyon qilsin hamda boshqa biror kuch hukmdorimiz va uning mulklarining tinchligiga qarshi rejalar tuzishdan qaytsin”. Bu yerda “boshqa kuch” deganda asosan Rossiya nazarda tutilgani shubhasiz [1. B. 144].

Yoqubbek to‘liq vakolat bergan Sayyid Yoqubxon Britaniya missiyasini Qoshg‘arga taklif qilib, savdo shartnomasini tuzishni so‘radi va buning evaziga ikki tomon vakillarining doimiy yashab turishini taklif etdi. Natijada 350 kishilik Britaniya missiyasi T.D.Forsayt boshchiligida Qoshg‘ar davlatining poytaxtiga yo‘l oldi; Istanbuldan qaytayotgan Sayyid Yoqubxon yo‘lda ularga qo‘shildi. Ular 1873-yil dekabr boshida Qoshg‘arga yetib kelishdi. 1874-yil 2-fevral kuni tomonlar savdo shartnomasini imzoladilar, 13-aprel kuni esa u Hindiston general-gubernatori Nortbruk tomonidan ratifikatsiya qilinib, tasdiqlandi [6. B. 322–29]

1872-yilda tuzilgan rus-Qoshg‘ar shartnomasi bilan 1874-yildagi Angliya-Qoshg‘ar shartnomasi o‘rtasida muhim farq bor edi. Ikkalasi ham savdo masalalariga oid bo‘lsa-da, ruslar bilan tuzilgan bitimda ikki tomonning karvonboshilari tayinlanishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ularning maqomi faqat “savdo vakillari” darajasidan oshmagan edi. Bundan farqli o‘laroq, Angliya bilan tuzilgan bitimda ikki tomon rasmiy vakillari va savdo agentlarini tayinlashga kelishib oldilar, bu vakillarning mos ravishda elchilar va konsullarga beriladigan diplomatik daraja hamda imtiyozlari tan olindi. Bu esa Qoshg‘ar davlatining xalqaro maqomini ancha yuqori bosqichga ko‘tardi. Shuningdek, ingliz sayohatchisi va tadqiqotchisi Robert Barkli Shou Qoshg‘ardagi maxsus vakil sifatida tayinlandi. Shou “Qoshg‘arda maxsus topshiriq bo‘yicha ofitser” etib tayinlandi va u 1875-yil iyunda Hindistonga qaytguniga qadar Qoshg‘arda xizmat qildi [1. B. 145].

Tarixchi D.J.Urakovning arxiv materiallariga asoslangan ma’lumotlariga ko‘ra, 1873-yili ingliz-hind hukumati topshirig‘i bilan T.D.Forsayt missiyasi Sharqiy Turkistonga tashrif buyuradi. Garchi elchilikning maqsadi savdo aloqalarini o‘rnatishdan iborat, deb ta’kidlansa-da, aslida bosh maqsad sifatida rus-Qoshg‘ar chegaralarini o‘rganish, qurol-yarog‘dan yordam berishga Yoqubbekni ko‘ndirish va shu orqali Rossiya imperiyasining Farg‘ona vodiysidagi ta’sirini yo‘qotish ko‘zlangan edi. Missiya 300 kishidan iborat bo‘lib, o‘zi bilan birga qirolicha Viktoriya va Hindiston vitse-qiroli nomalarini ham olib kelgan edi. Garchi missiya savdo aloqalarini tiklashni maqsad qilgan bo‘lsa-da, uning tarkibi asosan razvedkachilar va topograflardan iborat bo‘lgan. 1873-yil dekabrda Qoshg‘arga yetib kelgan inglizlar bir necha marta Yoqubbek bilan uchrashadi. Natijada 1874-yil fevral oyida Angliya va Yettishahar o‘rtasida savdo shartnomasi imzolanadi. Mazkur kelishuv Angliyaga mintaqada keng imkoniyatlar yaratish uchun xizmat qilar edi. Ular endi G‘arbiy Xitoy ishlariga ham faol aralashishi mumkin edi. Shu bilan birga, ular amir askarlari uchun qurol-yarog‘ va harbiy aslahalardan yordam ko‘rsatdilar [7. B. 66–67]. Bu ma’lumotlarni ingliz tilidagi manba va adabiyotlar bilan solishtiradigan bo‘lsak, Forsayt missiyasining asl mohiyati ochiq tarzda bayon etilganini ko‘ramiz. Lekin rus elchi va harbiylarining faoliyatini ochib berishda ingliz tilidagi manbalarda tanqidiy qarash kuchliligini anglashimiz qiyin emas.

Qoshg‘ardagi ruslarning faolligi inglizlarni ham bu yerda yanada faolroq bo‘lishga undagan edi. Ular doimo Hindistonning shimoliy chegarasi xavfsizligi va shu tomondan bo‘lishi mumkin bo‘lgan rus bosqini haqida tashvishlanishar, shu bilan birga noma’lum savdo bozoridan ham foydalanishni istashar edi. 1874-yilda Qoshg‘ar bilan imzolangan savdo shartnomasi yangi va yanada yaqinroq munosabatlarning boshlanishi sifatida ko‘rindi. Ammo, G.J.Alder to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “1873–1874-yillardagi Forsayt missiyasi Britaniyaning Qoshg‘ardagi ta’siri cho‘qqisini bildirgan bo‘lsa-da, ayni paytda mamlakatning savdo salohiyatidan inglizlarning tobora ko‘proq ko‘ngli qolishida muhim burilish nuqtasi ham edi” [4. B. 55]. Missiya hisobotlarida aytilishicha, Rossiya Hindistonga Qoraqurum tog‘lari orqali bostirib kira olmas, balki g‘arb tomondagi Pomir yoki Hindukush dovonlaridan foydalanishga majbur bo‘lardi. Britaniya g‘arbdan bo‘lishi mumkin bo‘lgan rus bosqini xususida xotirjam bo‘la olmagan bo‘lsada, Qoshg‘ar ilgari bo‘lganidek strategik ahamiyatga ega emas edi. Xuddi shuningdek, Sharqiy Turkiston bilan kelajakdagi savdo istiqbollari ham ilgari tasvirlangandek umidli bo‘lib chiqmadi. Umuman olganda, 1874-yildan boshlab Britaniyaning Qoshg‘ar bilan munosabatlardagi manfaatlari pasaya boshladi va Yoqubbekning Rossiya ta’sir doirasiga qo‘shilib ketishining oldini olish bilan chegaralandi [1. B. 145].

Yoqubbek esa Britaniya Hindistoni bilan tuzgan shartnomasidan ancha ko‘proq foyda ko‘rdi. U nafaqat ingliz hukumati tomonidan o‘z hukmronligining tan olinishiga erishdi, balki o‘z mamlakatini rus tahdididan avvalgidan ham xavfsizroq qildi. Rossiya Qoshg‘arga bostirib kira olmas edi, chunki bunday harakat Angliya bilan munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatardi. Bundan tashqari, Angliya bilan do‘stona aloqalari natijasida Yoqubbek qurol-yarog‘ sotib olish manbaiga ega bo‘ldi. Garchi Britaniya Hindistoni hukumati hech qachon Yoqubbekka rasmiy qurol yetkazib beruvchi bo‘lib xizmat qilmagan bo‘lsada, u xususiy firmalarga Qoshg‘arga qurol yetkazib berishga litsenziyalar berdi. 1875-yilda Hindiston hukumati “hurmat yuzasidan” Bombeydan Lohurgacha ikki yuzta qurol qutilarini tashish xarajatlarini to‘lab berdi, bu qurollar Yorkendga mo‘ljallangan edi

[4. B. 54]. Biroq Yoqubbek o‘zining diplomatik harakatlarini faqat bevosita qo‘shnilari bilan cheklab qo‘ymadi. U o‘z davlatining qonuniyligini kengroq musulmon dunyosiga ham tasdiqlatishga muhtoj edi, bu esa uni Usmonli imperiyasi bilan aloqalar o‘rnatishga olib keldi.

Yettishahar davlatining Usmonli imperiyasi bilan olib borgan aloqalari muvaffaqiyatli kechdi. 1873-yilda Sulton Abdulaziz Yoqubbek Badavlatni “Qoshg‘ar amiri” deb e’lon qildi. Keyingi yillarda qurol, harbiy forma va harbiy konstruktorlarni jo‘natdi. Lekin masofaning uzoqligi va rus-turk urushining boshlanishi Yettishahar davlatiga harbiy va moddiy yordam berish imkoniyatidan mahrum etdi. Britaniya esa bunday vaziyatda Sin imperiyasiga qarshi urush harakatlarini olib bora olmadi.

Angliya hukumati ham Muhammad Yoqubbekka zamonaviy armiya tuzish masalasida yordam berdi. 1875-yilga kelganda Yoqubbekning qo‘shini son jihatdan 40 mingga yetgan bo‘lib, asosiy qismi zamonaviy qurollar bilan ta’minlangan edi. Albatta, Muhammad Yoqubbekning majburiy qilingan, katta mablag‘ talab qiladigan ishlari mahalliy xalqlar zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushdi va ularning noroziligini kuchaytirdi. Zero, manjurlar zulmi ostida bir asrdan ortiq yashagan, iqtisodi bir tomonlama rivojlangan, qurol-yarog‘ yasash huquqidan mahrum bo‘lgan bir o‘lkada zamonaviy armiya tuzib, o‘zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishning o‘zga chorasi yo‘q edi. Albatta, bu yordamlar bekorga qilinmagan. Bundan ingliz kapitalistlari katta foyda ko‘rdilar. Shu zamonda ular Szo Szuntanga ham katta hurmat ko‘rsatganlar. Manjur hukumatiga esa Sharqiy Turkistonga yuboriladigan 50 mingdan ortiq qo‘shinni qurollantirish va ta’minlash uchun bir necha marta yirik qarz berib, unga og‘ir ahvoldan chiqishda yordam berganlar [8. B. 74–75].

A.N.Kuropatkinning yozishicha, urushga tayyorgarlik ko‘rishda “Yoqubbek o‘z sa’y-harakatlarini nihoyatda keskinlashtirdi, xitoyliklarning kuchi esa oy sayin oshib borishi mumkin edi”. Yettishahar davlatining sust rivojlangan iqtisodiyoti Sin imperiyasining moddiy imkoniyatlariga qarshi tura olmas edi. Chunki Sin imperiyasi Shinjon hududiga 191 batalyon askar yuborgan va jazolovchi ekspeditsiyani ta’minlash uchun har yili 9 million lyan kumush mablag‘ sarflagan [9. B. 208].

1875-yil aprel oyida Szo Szuntan Shinjon bo‘yicha harbiy ishlar uchun imperator komissari etib tayinlandi va shu tariqa ilgari asosan manjur va mo‘g‘ul amaldorlari nazoratida bo‘lib kelgan hududga rahbarlik qilgan birinchi xan (xitoy) amaldoriga aylandi. Shundan so‘ng u Shinjon harbiy yurishlariga puxta tayyorgarlik ko‘ra boshladi: taxminan 60 ming nafar askar va xizmat xodimidan iborat qo‘shin tanlab olindi, ular yaxshi tayyorgarlikdan o‘tkazilib, G‘arbdan keltirilgan zamonaviy qurollar hamda G‘arb qurollarining Xitoyda ishlab chiqarilgan yangi nusxalari bilan ta’minlandi.1874–1876-yillar davomida, ya’ni harbiy yurishlarga tayyorgarlik jarayonida bu askarlar dehqonchilik bilan ham shug‘ullanib, armiyaning don zaxiralarini to‘ldirishga hissa qo‘shdilar. Donning yana bir qismi Szo Szuntan safarbar etgan keng ko‘lamli logistika tizimi orqali yetkazib berildi: 5 ming arava, 29 ming tuya, 5500 ta eshak va xachir yordamida taxminan 16 million kilogramm don Gansu yo‘lagi, Hami va Barkul hududlaridagi oraliq tayanch punktlarida jamlab qo‘yildi. Hatto Sibir hududidan rossiyalik yetkazib beruvchilardan ham don sotib olingan [10. B. 127–128].

Agar Sin qo‘shinlari muvaffaqiyatga erishsa, Rossiya ham, Angliya ham voqealar oqimini o‘zgartirish uchun katta xavf ostiga kirishga tayyor emas edi. Rossiya harbiy yurish boshlanganidan keyin uning jarayoniga bevosita aralashmadi, hatto Sin qo‘shinlariga g‘alla ham yetkazib berdi. Angliya esa Qoshg‘ar va Xitoy o‘rtasidagi nizoda vositachilik qildi, biroq o‘zining muhim iqtisodiy manfaatlari xavf ostida qolgan avvalgi paytlarda Xitoy dengiz portlariga qarshi qo‘llagan keskin choralarni bu safar qo‘llamadi. Buning sababi oddiy edi: Qoshg‘ar davlatining omon qolishi ular uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lmagan. Rossiya Sinning Qoshg‘arga egalik qilishini afzal ko‘rgan, biroq Yoqubbek bilan allaqachon, qoniqarli bo‘lmasa ham, savdo shartnomasiga erishganligi uchun uning hukmronligi bilan ham kelishishga tayyor edi. Angliya esa, aksincha, Yoqubbek rejimining saqlanib qolishini istar edi, chunki ular bu tuzumda ruslarga qaraganda ko‘proq ta’sir kuchiga ega edilar. Har ikkala davlatning Sharqiy Turkistondagi diplomatiyasi o‘zaro raqobat va bir-biridan xavfsirashga asoslangan bo‘lgani uchun, agar mintaqa yana Xitoy qo‘liga o‘tsa ham, ularning manfaatlariga jiddiy zarar yetmasdi. Chunki hudud baribir ular orasida, faqat endi Sin nazoratidagi “bufer” davlat bo‘lib qolardi. Ana shu yakuniy hisob-kitob natijasida ikkala davlat ham urushda betaraflikni saqlashni ma’qul ko‘rdi va musulmon davlati taqdirini Sin va Qoshg‘ar o‘rtasidagi kurashga tashlab qo‘ydi [1. B. 158].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Britaniya imperiyasi va Yettishahar davlati o‘rtasidagi munosabatlar XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyodagi murakkab geosiyosiy jarayonlar ta’sirida shakllandi. Ushbu aloqalar barqaror siyosiy ittifoq darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lib, asosan ehtiyotkor, vaziyatga moslashuvchan va cheklangan diplomatik munosabatlar doirasida rivojlangan. Bu holat Britaniya imperiyasining mintaqadagi asosiy strategik manfaatlari, xususan, Hindiston xavfsizligini ta’minlash masalasi bilan chambarchas bog‘liq edi.

Britaniya siyosiy doiralari Yettishahar davlatini Rossiya imperiyasining Turkiston orqali janubga tomon kengayishini cheklovchi muhim siyosiy omil sifatida baholagan bo‘lsa-da, uning uzoq muddatli barqarorligiga yetarli darajada ishonch bildirmagan. Shu sababli Britaniya hukumati Yettishahar davlatini rasman tan olishdan tiyilib, munosabatlarni asosan diplomatik missiyalar va savdo tashabbuslari bilan cheklab qo‘ygan. Bu esa Britaniya-Yettishahar aloqalarining cheklangan va pragmatik xarakter kasb etishiga olib kelgan.

Yettishahar davlatining tashqi siyosati esa faol va tashabbuskor yo‘nalishda shakllangan bo‘lib, Muhammad Yoqubbek Britaniya imperiyasi bilan yaqinlashish orqali xalqaro maydonda siyosiy maqomini mustahkamlash, tashqi siyosiy tayanchga ega bo‘lish va Sin imperiyasi bosqiniga qarshi muvozanat yaratishga intilgan. Biroq Britaniya imperiyasining ehtiyotkor siyosati hamda mintaqadagi kuchlar nisbatining o‘zgarib borishi Yettishahar davlatining bu boradagi sa’y-harakatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon bermagan. Umuman olganda, Britaniya imperiyasi va Yettishahar davlati o‘rtasidagi munosabatlar “Katta o‘yin” davrida yirik imperiyalar manfaatlari to‘qnashuvi sharoitida mintaqaviy siyosiy tuzilmalar tashqi siyosiy imkoniyatlarining qanchalik cheklanganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu aloqalar Yettishahar davlatining xalqaro munosabatlar doirasini ma’lum darajada kengaytirgan bo‘lsa-da, uning siyosiy mustaqilligini uzoq muddat saqlab qolish uchun yetarli asos bo‘la olmagan. Shu jihatdan Britaniya-Yettishahar munosabatlarini o‘rganish XIX asr Markaziy Osiyo tarixida xalqaro siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. *Hodong Kim*. Holy war in China: the Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877. – Stanford, California: Stanford University Press, 2004. – 315 p.

2. *Ҳопкрик П.* Катта ўйин: Икки империя тўқнашуви. /Таржимон: Шодиёр Нишонбоев. – Тошкент: Nihol, 2022. – 744 б.

3. *Исиев Д.А*. Уйгурское государство Йэттишар (1864–1877). – Москва: Наука, 1981. – 91 с.

4. *Alder G. J.* British India’s Northern Frontier, 1865–1895: A Study in Imperial Policy. – London: Longmans for the Royal Commonwealth Society, 1963. – 392 p.

5. *Shaw R*. Visits to High Tartary, Yarkand, and Kashgar (formerly Chinese Tartary), and Return Journey over the Karakoran Pass. — London: John Murray, 1871. – 468 p.

6. *Boulger D.C*. The life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. – London: W.H. Allen & Co., 1878. – 344 p.

7. *Ураков Д.Ж*. Туркистон генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. – Тошкент: Lesson press, 2021. – 213 б.

8. *Ходжаев А., Қўлдошев Ш.* Муҳаммад Ёқуббек. – Тошкент: Наврўз, 2021. – 112 б.

9. *Куропаткин А.Н*. Кашгария: историко-географический очерк страны, ее военные силы, промышленность и торговля. – Санкт-Петербург: Типография В.С.Балашева, 1879. – 435 с.

10. *Millward J.A.* Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. – London: Hurst & Company, 2007. – 352 p.

THE RELATIONS BETWEEN THE BRITISH EMPIRE AND THE STATE OF YETTISHAHAR

Sardorbek A. Sobirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 5(89). 36-43.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *British Empire, State of Yettishahar, Eastern Turkestan, Yaqubbek Badavlat, "Great Game", Thomas Forsyth, Central Asia, Pamir, trade relations, mission.*

This article examines the relations between the British Empire and the state of Yettishahar in the second half of the nineteenth century, a period marked by intensified geopolitical rivalry among major imperial powers in Central Asia. The study addresses the problem of how British strategic interests, primarily connected with the security of British India, influenced the nature and limits of interaction with Yettishahar under the rule of Muhammad Yaqubbek. Special attention is given to the role of Yettishahar as a buffer political entity within the broader context of the "Great Game".

The research is based on a wide range of primary sources and scholarly works, including studies by Hodong Kim, D. Ch. Boulger, A. N. Kuropatkin, and D. A. Isiyev, as well as travel accounts, diplomatic reports, and archival materials. The methodological framework combines historical-chronological and comparative approaches with analysis and synthesis, allowing for an objective assessment of diplomatic, military, and economic factors shaping British-Yettishahar relations.

The article demonstrates that relations between the British Empire and Yettishahar did not develop into a formal political or military alliance. Instead, they were characterized by caution, pragmatism, and situational flexibility. British policymakers viewed Yettishahar primarily as a strategic buffer against Russian expansion rather than as a stable long-term partner. Diplomatic missions, trade agreements, and intelligence-gathering activities constituted the main forms of interaction, while official recognition of Yettishahar's sovereignty was deliberately avoided.

At the same time, Yettishahar's foreign policy, shaped by Yaqubbek, was notably proactive. Seeking external support, Yaqubbek attempted to strengthen his international position through engagement with the British Empire, aiming to secure military supplies, political backing, and protection against Qing reconquest. Although these efforts temporarily expanded Yettishahar's international contacts, they ultimately proved insufficient to ensure the state's long-term survival.

The study concludes that British-Yettishahar relations vividly illustrate the constraints faced by regional political entities amid great-power rivalry. While such interactions could enhance diplomatic visibility and short-term security, they remained subordinate to the strategic priorities of imperial powers. The case of Yettishahar thus provides important insight into the dynamics of imperial competition and regional agency in nineteenth-century Central Asia.

References:

1. Hodong, Kim. (2004). Holy war in China: the Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877. Stanford, California: Stanford University Press.

2. Hopkrik, P. (2022) *Katta o'yin: Ikki imperiya to'qnashuvi* [The Great Game: The Clash of Two Empires]. Translated by Shodiyor Nishonboyev. Tashkent: Nihol.

3. Isiev, D.A. (1981). *Ujgurskoe gosudarstvo Jettishar* (1864-1877) [The Uyghur state of Yettishar (1864–1877)]. Moscow: Nauka.

4. Alder, G. J. (1963). British India's Northern Frontier, 1865-1895: A Study in Imperial Policy. London: Longmans for the Royal Commonwealth Society.

5. Shaw, R. (1871). Visits to High Tartary, Yarkand, and Kashgar (formerly Chinese Tartary), and Return Journey over the Karakoran Pass. London: John Murray.

6. Boulger, D.C. (1878). The life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. London: W.H. Allen & Co.

7. Urakov, D.J. (2021). Turkiston general-gubernatorligining qo‘shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari [The Political and Economic Relations of the Turkestan General-Governorate with Neighboring States]. Tashkent: Lesson press.

8. Xodjayev, A., Qo‘ldoshev, Sh. (2021). Muhammad Yoqubbek [Muhammad Yakub Beg]. Tashkent: Navro‘z.

9. Kuropatkin, A.N. (1879). *Kashgariya: istoriko-geograficheskij ocherk strany, ee voennye sily, promyshlennost i torgovlya* [Kashgaria: historical and geographical sketch of the country, its military strength, industries, and trade]. Sankt-Peterburg: Printing house of V.S.Balashev.

10. Millward, J.A. (2007). Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. London: Hurst & Company.

Muallif haqida ma’lumot:

SOBIROV Sardorbek Abdusattor o‘g‘li – Andijon davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: sobirov88@adu.uz